| **2) Androgogika** | B) Ta'lim nazariyasi o'quv faoliyatining kattalr subyekti tomonidan bilim va ko'nikmalar o'zlashtirishning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib beradigan bo'limi |
| | C) O'quvchilar shaxsiyatlarini rivojlantirishning ichki mexanizmlarini o'z ichiga olgan va ularni intellektual hamda ijodiy qobilyatlarini to'g'ri amalga oshirishga yordam beradigan ta'limni tashkil etish tizimi |

**Javob; 1-a; 2-b**

271.Mahoratli pedagog o'z darslarida chiroyli va mazmunan boy, o'zbek adabiy tili talablariga mos so'zlashi bilan ajralib turadi. Bunda o'qituvchin nutqning asosiy xususiyatlaridan qay birini mohirona qo'llagan?

**Javob; Nutqning tozaligi va ifodaliligi**

272. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ota-onalar va o'qituvchilar suhbatda so'z boyligining kengligi, fikr yuritayotganda mavzuga nisbatan chuqur bilimga ega ekanligi, bilimlarini o'z tafakkuri doirasida tahlil qila olishini namoyon qildi. Suhbat jarayonida gaplarning ketma-ket bir biriga tògri kelishi va mantiqiy izchilligi hammani hayron qoldirdi. Bunda pedagog nutq xususiyatlaridan qay birini mohirona qo'llagan hisoblanadi?

**Javob; Nutqning mantiqiylig**

273.Berilgan topshiriqni bajargan o'quvchi bahosidan norozi bo'ldi va "3" bahoni "4" bahoga ko'tarishini talab qildi. Bunday holat yuzaga kelishining sababi nimada?

1. Topshiriq berilayotganda o'quvchilar baholash mezoni bilan tanishitirilmagan.

2. Topshiriqni baholashda subyektiv yondashilgan

3. Topshiriq sinfdagi o'quvchilarga nisbatan baholangan

4.Topshriq baholash mezonlarining barcha talablari asosida amalga oshirilgan va tushuntirilgan

**Javob; 1,2, 3**

@Guli_Eshnazarova

| NUTQNING ASOSIY XUSUSIYATLARI | | |
|---|---|---|
| 1 | **Nutqning to‘g‘riligi va ravonligi** | *uning* ***adabiy til normalarigi to‘g‘ri kelishidir*** *Bunda ikkita jihatga e'tibor beriladi: urg‘u va grammatik normalarga amal qilinishi.* |
| 2 | **Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi** | *mazmundor* ***nutqning tinglovchiga ta'sir etish omilidir****. 0‘qituvchi so‘z va tilning ravonligi, notiqlik qobiliyati bilan aniq faktlar asosida 0‘quvchilarga bilim beradi, ularning ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi. 0‘qituvchi nutqining aniq bo'lishi, o‘z mas'uliyatini chuqur his etish shartidir. Aniqlik, o'rganilayotgan mavzuning 0‘qituvchi tomonidan ifodalanayotgan voqelikka faktlarga muvofiq kelishidir. Aniqlikning chegarasini belgilashda 0‘qituvchi so‘zlami to‘g‘ri qoilay olishi, o‘zbek tili grammatikasini mukammal bilishi, to'g'ri talaffuz eta olishi talab qilinadi.* |
| 3 | **Nutqning mantiqiyligi** | ***nutqning mantiqiy bolishi, eng avvalo 0‘qituvchining so‘z boyligi, tafakkur yuritish qobiliyati, idrok etish*** *mahoratiga bog'liq. 0‘qituvchi tilni juda yaxshi bilishi, so‘z boyligi keng bo'lishi mumkin. Ammo o‘zi fikr yuritayotgan mavzuga nisbatan chuqur bilimga ega bolmasa, bilimlarini o‘z tafakkuri doirasida tahlil qila olmasa notiqlik san'ati natija bermaydi. So‘zlarning o‘qituvchi ifodalayotgan mavzuga mos ravishda to‘g‘ri ifodalanishi, so‘z birikmalarining, gaplarning, matnlaming bir-biriga to‘g‘ri kelishi, fikri izchil bayon etish uchur bo‘ysundirilishi nutqning mantiqiy boy ekanligidan dalolat beradi O‘quvchilarga aytilayotgan fikr mantiqan bir-biriga bog'langan bo'lish kerak* |
| 4 | **Nutqning tozaligi va ifodaliligi** | ***0 ‘qituvchi nutqining tozaligi, avvalo uning adabiy til lisoniy normalariga muvofiq ifodalanishi bilan belgilanadi.*** *O'qituvchilarning chiroyli va mazmunan boy nutqi hozirg o‘zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan boiishi, g‘ayriadabiy til kutubxonasi unsurlaridan holi bo‘lishiga qarab baholanadi. Nutqning toza boiishiga halaqit beruvchi unsurlar: dialektizm va varvarizmdir. Zero, ushbu unsurlar badiiy adabiyotda ma'lum bir badiiy - estetik vazifani bajarsada, 0‘qituvchining dars jarayonidagi va tarbiyaviy faoliyatidagi nutqida ishlatilmasligi kerak. 0‘qituvchi doimiy ravishda idoraviy atamalami, rasmiy so‘z va iboralami noo‘rin ishlatishi o‘z nutqining notabiiyligiga, ishonchsiz chiqishiga sabab bo'ladi. Natijada o‘quvchilar ta'lim-tarbiyasida o‘qituvchi tomonidan ishontirish metodi orqali qo'llaniladigan fikrlar mukammal bayon etilmaydi.* |

@Guli_Eshnazarova

@PedMahoratGuli @Guli_Eshnazarova

**Ushbu ma’lumotlardan turli vaziyatli savollar tushadi. Yod olshingizni tafsiya qilaman!!**

| **Didaktikaning asosiy kategoriyalari** | |
|---|---|
| **O’rgatish** | o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha ***pedagogning tartiblangan faoliyati***. |
| **O’rganish** | ***anglash***, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi. |
| **O’qitish** | qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan ***pedagog bilan o‘quvchilarning tartiblangan o‘zaro harakati*** |
| **Ta’lim** | o‘qitish jarayonida egallanadigan ***bilim, ko‘nikma, malakalar, kompetensiya*** va fikrlash usullari tizimi. |
| **Bilim** | ma’lum bir fanni nazariy o‘zlashtirishni aks ettiradigan ***inson g‘ oyalari*** yig‘ indisi; |
| **Ko’nikma** | egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o‘zlashtirilgan bilimlarni ***amaliyotga qo‘llash*** usullarini egallash. |
| **Malaka** | ***avtomatlashgan,*** biror bir usul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi |
| **Kompetensiya** | egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik va ***kasbiy faoliyatda*** qo‘llay olish layoqati. |
| **Maqsad** | o‘ qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo‘sinda ***safarbar etilishi.*** |
| **Mazmun** | o‘qitish jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan ilmiy bilim, ***amaliy ko‘nikma va malakalar***, faoliyat, fikrlash usullari tizimi. |
| **Tashkil etish** | qo‘yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, ***aniq mezonlar*** bo‘yicha tartiblangan didaktik jarayon. |
| **Shakl** | o‘quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig‘i, mazmuni uchun ***qobiq*** |
| **Metod** | o‘ qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) ***yo‘li.*** |
| **Vosita** | o‘quv jarayonining predmetli qo‘llab-quvvatlanishi, yangi materialni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va talabalar tomonidan ***foydalaniladigan ob’ ekt*** |
| **Natija** | o‘quv jarayonining so‘nggi ***mahsuli***, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi. |

**Ushbu ma’lumotlardan turli vaziyatli savollar tushadi. Yod olshingizni tafsiya qilaman!!!**

@Guli_Eshnazarova

**276. Moslashtiring**

| | |
|---|---|
| **1) Maqsad** | A) o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi. |
| **2) Mazmun** | B) o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi. |
| | C) egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati. |

**Javob; 1-a, 2-b**

**277.** O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirdi va o'quvchilarning nazariy bilimlar asosida egallagan malaka va кo'nikmalarini, hayotiy amaliyotlarida turli vaziyatlarda qo'llashni o'zlashtirib olishlarini nazorat qildi. Bunda o'qituvchi qaysi dars usulidan foydalandi?

**Javob; Ko'nikma va malakalami ishlab chiqish va mustahkamlash darsi**

278, O'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda qanday yo'nalishlarda olib boriladi:

1) O'qituvchining shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi.

2) O'qituvchining ruhiy - psixologik tayyorgarligi.

3) 0 'qituvchining ijtimoiy - pedagogik va ilmiy - nazariy jihatdantayyorgarligi.

4) 0 'qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi.

**Javob; 1, 2, 3, 4**

**279.** Fizika o'qituvchisi o'quvchiga mustaqil bajarish uchun vazifa berdi. Vazifani bajarishda faqatgina berilgan adabiyotlar ro'yxatidan foydalanmasdan, o'z shaxsiy fikr va mulohazalari bilan boyitishni so'radi. Shunda o'qituvchi o'quvchining ijodkorligini rivojlantirish uchun qanday ta'lim turidan foydalangan?

**Javob; Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim**

**280.** Ushbu metod respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Bu metod respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Metod jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi. Bu qaysi metod turi?

**Javob; Intervyu metodi**

@Guli_Eshnazarova

**281.** Fizika o'qituvchisi mavzuni bolalarga juda ham tez tushuntirdi lekin bolalar aniq va oson tushuna olishdi. Bunday holatda o'qituvchida qaysi qobilyat yaxshi rivojlangan?

**Javob; Didaktik qobilyat**

| | |
|---|---|
| **1. Rivojlantiruvchi ta'lim** | A) O'quvchilar shaxsiyatini rivojlantirishing ichki mexanizmlarini o'z ichiga olgan va ularning Intellektual hamda jodiy qobiliyatlarini to'liq oshirishga yordam beradigan ta'lim tizimi |
| **2. Modul tizimli ta'lim** | B) Har bir fan alohida yoki oralig'ida o'qitish formati |
| | C) O'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini masofadan o'rganish, larning bilimlarini sipab ko'rish va o'qituvchilar bilan aloqa qilish uchun internet va zamonaviy texnologiyalardan foydalanisnni o'z ichiga olgan ta'lim shakli |

**Javob; 1-a;2-b**

**283.** Bir o‘qituvchi darslarida 7-A sinfi doimo faol bo'lib, yaxshi bilim va natijalar ko‘rsatadi. Banda o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot qilishi, ta'lim va tarbiya qonuniyatlarini hamda metodlarini chuqur o‘zlashtirgan holda samarali qo'llashi, hozirgi zamon pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishi yaxshi qurol bo'lib xizmat qiladi.

**Javob; Didaktik qobilyat**

| DARS TURLARI | | |
|---|---|---|
| 1 | **Aralash (kombinatsivalashgan) darslar** | yoki murakkab tuzilishga ega boigan ushbu dars jarayonida O‘qituvchi quyidagi kombinatsiyani qollashi mumkin: *uy vazifalarini tekshirish va o'quvchilar bilan savol javob, yangi materialni o ‘rganish, bilimlarni mustahkamlash, o ‘quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish* |
| 2 | **Yangi materiallar bilan tanishish darsi** | yoki yangi bilimlarni berish (o'rganish) darsida o'qituvchi rahbarligida o‘quvchilai mustaqil ish olib boradilar, o'qituvchi darsning tuzilishi va olib borilishini quyidagicha ta’minlaydi: *yangi materialni o'rganish uchun asos bo ‘lgan avvalgi materialni takrorlash, o'qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi, bilimlarni tekshirish va mustahkamlash, uyga vazifa berish.* |

@Guli_Eshnazarova

| | | |
|---|---|---|
| 3 | **Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darsida** | o'qituvchi darsning asosiy mazmunini ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga qaratadi. O'qituvchi asosiy e'tibomi o'rganilgan mavzulami takrorlash tarzida mashg'ulot olib borishga qaratadi. Tuzilishi bo'yicha bunday darslami o'qituvchi quyidagi bosqichda tashkil etadi: *o'quvchilarning bilish qobiliyatini va tafakkurini tekshirish, og'zaki va yozma mashqlami bajarish, topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilish, uyga vazifa berish.* |
| 4 | **Q'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslari** | bevosita o'qituvchi rahbarligida o'rganilgan *o'quv materiallaridan murakkab savollarni takrorlash va tizimlashtirish asosida o 'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarning mavjud kamchiliklari to'ldiriladi va o'rganilayotgan yangi mavzuning muhim g'oyalari ochib beriladi.* O'rganilganlami umumlashtirish va tizimlashtirish darslarini o'qituvchi o'rganilgan mavzuning, bo'lim yoki o'quv kurslarining yakunida o'tkazadi |
| 5 | **Ko'nikma va malakalami ishlab chiqish va mustahkamlash darsi** | egallangan bilimlarni o'quvchilar tomonidan mustahkamlash ham kutubxonasida amaliyotda qo'llay olish bilan bog'liqdir. Ushbu ta'lim jarayoni bir nechta maxsus darslarda amalga oshiriladi. Yangi mavzulami o'rganishda davom ettiriladi. Bunda o 'qituvchining vazifasi o'quvchilarning *nazariy bilimlar asosida egallagan malaka va кo'nikmalarini, hayotiy amaliyotlarida turli vaziyatlarda qo'llashni o'zlashtirib olishlarini nazorat qilishdan iborat.* |
| 6 | **Bilimlarni tekshirish (nazorat) darsida** | o'qituvchi o'quvchilarning fanlar yuzasidan *o 'zlashtirgan bilimlarini tekshirish, кo 'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini, o'quv materiallarining o'zlashtirishdagi kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarni bajarish yo'llarini belgilab olishiga* yordam beradi. |

| | |
|---|---|
| **1. Kompetensiya** | A) egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati. |
| **2. Metod** | B) o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li. |
| | C) qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati. |

**Javob; 1-a; 2-b**

@Guli_Eshnazarova

@PedMahoratGuli @Guli_Eshnazarova

| | |
|---|---|
| 1) ma’lum bir fanni nazariy o‘zlashtirishni aks ettiradigan inson g‘oyalari yig‘indisi; | **A) bilim** |
| 2) egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash usullarini egallash | **B) ko’nikma** |
| 3) avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi. | **C) malaka** |
| 4) egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo‘llay olish layoqati. | **D) Kompetensiya** |

**Javob; 1-a; 2-b; 3-c; 4-d**

| | |
|---|---|
| **1. Vosita** | A) o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi. |
| | B) o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li. |
| **2. Natija** | C) o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan ob'ekt. |

**Javob; 1-c; 2-a**

@Guli_Eshnazarova

| PEDAGOGIK TADQIQOT METODLARI | | |
|---|---|---|
| 1 | **Pedagogik kuzatish metodi.** | Uni qoʻllash jarayonida, taʼlim muassasalarining oʻquv tarbiya ishlari jarayonini oʻrganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, *tajriba avvali va yakunida qoʻlga kiritilgan koʻrsatkichlar oʻrtasidagi farq toʻgʻrisidagi maʼlumotga ega* boʻlinadi. Pedagogik kuzatish murakkab va oʻziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qoʻlga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish taʼlim-tarbiya sifatini oshirish, oʻquvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi. |
| 2 | **Suhbat metodi** | Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega boʻlingan maʼlumotlarni boyitish, mavjud holatga toʻgʻri baho berish, muammoning Yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo Yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda *indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda* oʻtkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari toʻla-toʻkis namoyon bilishga erishish muhimdir. |
| 3 | **Anketa metodi** | (fransuzcha - tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida toʻplangan dalillar boyitiladi. *Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida* respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, koʻp hollarda, yozma ravishda olinadi. |
| 4 | **Intervyu metodi** | respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini taʼminlaydi. Intervyu *respondent eʼtiboriga turkum savollarni havola etish asosida oʻtkaziladi*. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi. |
| 5 | **Taʼlim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi** | Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida taʼlim *muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi maʼ lumotlarni tekshirish* maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarining taʼlim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini oʻrganish, bu boradagi faolllik darajasi, erishilgan yutuq hamda yoʻl qoʻyilgan kamchiliklarni aniqlash, ilgʻor tajribalarni ommalashtirish va taʼlim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qoʻllaniladi. |
| 6 | **Test metodi** | Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) boʻyicha oʻzlashtirilgan *nazariy bilim va amaliy koʻnikma, malakalar darajasini aniqlashga* xizmat qiladi. Test metodini qoʻllashda aniqlanishi zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalarni turkum asosida berilishiga eʼtibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar |

@Guli_Eshnazarova

| | | |
|---|---|---|
| | | bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas |
| 7 | **Pedagogik tahlil metodi.** | Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan *muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda* o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi. |
| 8 | **Bolalar ijodini o'rganish metodi** | Mazkur metod o'quvchilarning muayyan *yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini* aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning jodiy ishlari - kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi. |
| 10 | **Pedagogik tajriba (eksperiment - lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish») metodi.** | Pedagogik tajriba metodidan muammo Yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, *ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash* maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo Yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur. |

| **DARS TAHILI TURLARI** | | |
|---|---|---|
| 1 | **Didaktik (Yoki ta'limiy) tahlil.** | Tahlilning bu turida mavzuning *ilmiyligi va izchilligi*, *oddiydan murakkabga* tomon yo'nalishi, ko'rgazmaliligi va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyligi, ularning jonli va ravon tilda ochib berilishi nazarda tutiladi |
| 2 | **Uslubiy tahlil** | Bunda o'qituvchi faoliyatining ikki tomoni: **birinchidan**, o'rganilayotgan mavzuga *dasturda mo'ljallangan soatda, uni qanday usullar èrdamida, talabalarning yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda* yetkazib bera olishi, talabalarni o'ylashga, izlanishga majbur etishiva unga sharoit yaratishi;<br>• **ikkinchidan**, o'qituvchi sifatidagi tajribalari qaysi darajada ekanligini namoyish eta olishi nazarda tutiladi. O'qituvchining ikkinchi tomoni tahlil etilayotganda, uning *ijodkorligi, uslubiy mahorati ko'zga tashlanishi lozim*. O'qituvchining ilg'or pedagogik va novatorlik tajribalari mana shu yerdan boshlanadi |

@Guli_Eshnazarova

| | | |
|---|---|---|
| 3 | **Metodologik tahlil** | Ushbu tahlil mobaynida ta'lim yo'nalishidagi *xukumat qarorlari, talablar, davlat tili, milliy ruh, madaniyatning go'zal durdonalari, shu soha bo'yicha buyuk alloma va olimlarning qilgan ishlari, fikrlari, respublikadagi oxirgi o'zgarishlarning* mashg'ulot davomida foydalanilishi asos qilib olinishi mumkin |
| 4 | **Psixologik tahlil** | Bu tahlilda, avvalo, *talabalarning kayfiyati, ularning sog'ligi, jamoadagi sog'lom muhit, talabalarning xushyorligi fanga bo'lgan qiziqishlari, dars berayotgan o'qituvchisiga munosabati, Talabalarning hozirjavobligi, sezgir va topqirligi, haroki, yangi va avvalgi materiallarni esda saqlashlari, obrazli va mantiqiy tafakkuri, talabalar fantaziyasi, oldida turgan mas'uliyatlariga talabalarning irodali yoki irodasizligi, ulardagi bilim, ko'nikma va malakalar ko'lami* kabi tomonlar kiradi. O'qituvchining favqulodda vujudga kelgan vaziyatdan o'z obro'sini saqlagan holda chiqaolishi, o'zini boshqara olishi ham inobatga olinadi |
| 5 | **Pedagogik tahlil** | Tahlilning bu turi ancha murakkab va mas'uliyatli bo'lib, *o'qituvchining tashqi qiyofasi, talabalar bilan til topa olish mahorati, madaniyati, odobi bilan birgalikda dars jarayonida umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismlarini* talabalargabera olishi va uning nutq madaniyati ham nazarda tutiladi |

**Ushbu ma'lumotlardan turli vaziyatli savollar tushadi. Yod olshingizni tafsiya qilaman!!!**

289. Sinf rahbari o'ziga yuklatilgan sinf o'quvchilarining fizika fanidan baholari tushib ketganini aniqladi. Fizika ustozi yosh mutaxassis bo'lgani uchun sinf rahbar uning darsini kuzatishga qaror qildi. Darsni kuzatish jarayonida, o'qituvchining nutqda aniq talaffuz yo'qligi va shu sabab o'quvchilar mavzuni to'g'ri tushunmayotganliklari ma' him bo'ldi. Fizika ustozi nutqining qay jihatida muammo borligini aniqlang.

**Javob; Diksiya**

| | |
|---|---|
| **texnologiya** | A) ta' limda foydalaniladigan barcha metod va usullar; |
| **metod** | B) maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat |
| | C) Aniq ketma-ketlikdagi yaxshj jarayon bo'lib, inson va texnik imkoniyatlarni hisobga olgan holda aniq maqsad va kafolarlangan natijaga yo'naltirilgan jarayon |

**Javob; 1-a; 2-b**

@Guli_Eshnazarova

| | |
|---|---|
| **Pedagogik texnologiya** | A) bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yoʻnaltipilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat japayoni mazmunidir. |
| **Tarbiya** | B) shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon boʻlib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta’sir etish imkonini beradi. |
| | C) Ishtirokchilarning ko'nikma va malakalarini, shuningdek, ularning biror narsaga nisbatan munosabatini oʻzgartishga yo'naltirilgan ta'limiy tadbir. |

**Javob; 1-a; 2-b**

293. O’qituvchining nutqi bir maromda mayin va jozibali emas. Shuning uning fikrlari o’quvchiga yaxshi yetib bormaydi. Bunday holatda o’qituvchi nutq texnikasining qayis jihatiga e’tibor qaratmagan?

**Javob; Tembr**

@Guli_Eshnazarova

| DARS TURLARI VA TARKIBIY QISMLARI | | |
|---|---|---|
| 1 | **Aralash (kombinatsion dars).** | a) tashkiliy qism;<br>b) oʻtilgan mavzuni takrorlash (uy vazifasini tekshirish);<br>c) *yangi mavzuni* bayon qilish;<br>g) *oʻrganilgan* materialni mustahkamlash;<br>d) oʻquvchilarni baholash;<br>e) uy vazifasini berish. |
| 2 | **Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.** | a) tashkiliy qism;<br>b) *yangi* mavzuni bayon qilish;<br>v) oʻrganilgan materialni mustahkamlash;<br>d) uy vazifasini berish. |
| 3 | **Oʻrganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.** | a) tashkiliy qism;<br>b) *oʻrganilgan* mavzularga doir savol-javob oʻtkazish;<br>v) oʻrganilgan mavzularga doir amaliy topshiriqlarni bajarish;<br>g) oʻquvchilarni baholash |
| 4 | **Oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini nazorat qilish darsi.** | a) tashkiliy qism;<br>b) oʻrganilganlarni umumiy tarzda takrorlash (yodga tushirish);<br>v) *nazorat ishini* oʻtkazish;<br>g) uy vazifasi (oʻrganilganlarni qayta takrorlash maqsadida). |
| 5 | **Laboratoriya darslari.** | a) tashkiliy qism;<br>b) nazariy materiallarni mustahkamlash;<br>c) *laboratoriya* ishini oʻtkazish; g) oʻquvchilarni baholash;<br>d) uy vazifasi. |
| 6 | **Amaliy darslar.** | a) tashkiliy qism;<br>b) nazariy materiallarni mustahkamlash;<br>v) *amaliy ish* topshiriqlarini bajarish;<br>g) oʻquvchilarni baholash;<br>d) uy vazifasi |

**Ushbu ma'lumotlardan turli vaziyatli savollar tushadi. Yod olshingizni tafsiya qilaman!!!**

@Guli_Eshnazarova

**294**. Qaysi darsning tuzilishi?

a) tashkiliy qism;

b) nazariy materiallarni mustahkamlash;

v) amaliy ish topshiriqlarini bajarish;

g) oʻquvchilarni baholash;

d) uy vazifasi.

**Javob; Amaliy dars**

**295.** Qaysi darsning tuzilishi?

a) tashkiliy qism;

b) nazariy materiallarni mustahkamlash;

c) laboratoriya ishini oʻtkazish;

g) oʻquvchilarni baholash;

d) uy vazifasi.

**Javob; Labaratoriya darsi**

**296.** Qaysi darsning tuzilishi?

a) tashkiliy qism;

b) oʻrganilgan mavzularga doir savol-javob oʻtkazish;

v) oʻrganilgan mavzularga doir amaliy topshiriqlarni bajarish;

g) oʻquvchilarni baholash.

**Javob; Oʻrganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsi**

**297.** Qaysi darsning tuzilishi?

a) tashkiliy qism;

b) oʻtilgan mavzuni takrorlash (uy vazifasini tekshirish);

c) yangi mavzuni bayon qilish;

g) oʻrganilgan materialni mustahkamlash;

d) oʻquvchilarni baholash;

e) uy vazifasini berish.

@Guli_Eshnazarova

**Javob; Aralash dars**

**298.** Qaysi darsning tuzilishi?

a) tashkiliy qism;

b) yangi mavzuni bayon qilish;

v) o‘rganilgan materialni mustahkamlash;

d) uy vazifasini berish.

**Javob; Yangi bilimlarni bayon qilish darsi**

**299.** Qaysi darsning tuzilishi?

a) tashkiliy qism;

b) o‘rganilganlarni umumiy tarzda takrorlash (yodga tushirish);

v) nazorat ishini o‘tkazish;

g) uy vazifasi (o‘rganilganlarni qayta takrorlash maqsadida).

**Javob; O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish**

**Darsi**

**300.** O'qituvchining o'z-o'zini anglashi o'zining kamchiligi va zaif tomonlarini bilib o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi, o'z tarbiyalanuvchilarining hamda o'z-o'zini takomillashtirishga zarur shart-sharoitlar yaratishi uchun mavjud ichki imkoniyatlarini kashf etishidir

**Javob; Refleksiya**

301. O'quv jarayonini tashkil etishda o'qituvchi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni aniqlang:

1. O'quvchilarning bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga olgan holda rejalarni muvofiqlashtirish

2. Dars vaqtini oqilona rejalashtirish, darsning maqsad, shakl va usullarini aniqlash

3. Sinfni boshqarish, o'quvchilar hamkorlikdagi tashkil etish va loyiha ishlarini

4. Bolalar bilan muloqot qilish, ularning qadr-qimmatini tan olish

**Javob; 1, 2**

@Guli_Eshnazarova

| | |
|---|---|
| **1. Didaktik tahlil** | A) O‘qituvchining tashqi qiyofasi, o‘quvchilar bilan til topa olish mahorati, madaniyati, odobi bilan birgalikda dars jarayonida umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismlarini o'quvchilarga bera olishi va uning nutq madaniyati kuzatiladi |
| **2. Pedagogik tahlil** | B) Mavzuning ilmiyligi va izchilligi , oddiydan murakkabga tomon yo'nalishi, ko'rgazmaliligi va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyligi, ularning jonli va ravon tilda ochib berilsihi kuzatiladi. |
| | C) O‘quvchilarning kayfiyati, ularning salomatligini, jamoada o‘zini tutish qoidalariga asoslangan, va tengdoshlari orasida do‘stona va o‘zaro hurmatli munosabatlar kuzatiladi. |

**Javob; 1-b; 2-a**

**303.** Bunday qobiliyatga ega bo 'Igan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida proza va poeziyani yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasnii xotirada saqlaydi, ayniqsa, she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.

**Javob; eshitish qobilyati**

**304.** Bolalar o'qituvchi tushuntirgan mavzuni tez ilg'ab olishlari o‘qituvchi esa o'z bilimini ularning ongi va tafakkuriga kam kuch sarflash evaziga yetkaza olishi namoyon bo'ldi ha o'qituvchi ta'lim va tarbiya borasida belgilangan muddatda maqsadga erishishi bilan hamkasblari orasida ajralib turadi. Bunda o’qituvchiga xos qaysi qobilyat namoyon bo’ladi?

**Javob; ta’lim jarayonini muqobillashtirish qobilyati**

**305.** O'qituvchi o'quv-tarbiyaviy faoliyatini puxta rejalashtirish asosida o'quvchilarining faoliyatini samarali takomillashtirishga muvaffaq bo'ladi. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan pedagogik vaziyatlarni obdon his qilish va muammolarni bartaraf etishga uchradi. Shuning uchun dars bergan sinflarda o‘quvchilar bilimi va odob-axloqi bilan qolgan maktab o'quvchilaridan ajralib turadi. Bunday holatda o'qituvchi pedagogga xos bo'lgan qaysi qobiliyatrni namoyon qiladi?

**Javob; Konstruktiv qobilyat**

**306.** O'qituvchining o'z hatti harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilgan holda yo'naltiradi, vaqtni harakat sur'ati bilan his qiladi, o'zi uchun maishiy qulayliklarni yarata oladi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi. Qaysi qobilyat turiga kiradi?

**Javob; kinestetik qobilyat**

@Guli_Eshnazarova

**307.** O'qituvchining o ‘quvchilarga qanday murojat qilishi. salomlashishi. talablarni qanday qo'yishi,fikrning qanday bavon qilishi: nutqining jozibadorligi. chehrasidagi . qarashi ham o'quvchilar sa ta ’sir ko'rsatishi O'qituvchining qanday xususiyatida namoyon bo'ladi?

**Javob; nutq texnikasida**

**308,** O'qituvchi bolalar uni hurmat qilmay qo'ymasligi, so'zlariga kirishi uchun doim ularga so'z bilan balki ko'z qarashlari yuz ifodalari va nigohlari bilan ham ta'sir eta olishi kerak. Bunday holatda o'qituvchi ta'sir ko'rsatishning qaysi usulidan foydalanishi kerak?

**Javob; mimika**

**309.** Yosh o'qituvchi kasbiy faoliyatiga oid yangiliklarni dadil o'zlashtiradi va uni jamoadoshlariga targ'ib qiladi. Va yangiliklar asosida o'z g'oyalarini ilgari suradi. Bunday holatda o'qituvchi ijodkorlikning qaysi usulidan foydalangan?

**Javob; evristik ijodkorlik**

**310.** Tarix fani o'qituvchisining darsini bolalar intiqlik bilan kutishadi. Chunki o'qituvchi har bir darsda bolalarni o'ziga jalb qiladigan tarixiy hikoyalarni so'zlab beradi. Bu hikoyalar orqali bolalar buyuklik sari yetaklaydi. Bunday holatda o'qituvchida qaysi qobilyat namoyon bo'ladi?

**Javob; bilish qobilyati**

**311.** Yosh o’qituvchi o’zining qatiyatligi bilan boshqalardan ajralib turadi va o’ziga ishonchi juda kuchli. Rahbar nima desa ham u ozini gapida turadi aytganini qiladi..majlislarda ham oz fikrini qorqmay ayta oladi. Bunday holatda oqituvchida qanday qanday qobilyat kuchli?

**Javob; shaxsning ichki qobilyati**

**312.** Tajribali pedagog o'quvchilarning olgan bilimlarini nazorat qilib ularni doimiy ravishda sinflar kesimida tahlil qiladi. Baholashning turli usullaridan foydalanish uchun bu sohadagi yangiliklarni kuzatib boradi. Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar yzuasidan o'quvchilarga kerakli maslahatlarni beradi. Ota-onaalr majlisida bolalarning baholari haqida doimiy ma’lumot berib boradi, Bu vaziyatda malakali ustoz o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish mehnat harakatlarining qaysi zarur ko'nikmalarnini namoyon etgan bo'ladi.

**Javob; O‘quvchilarga va ota-onalar(ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar)ga ta’lim va baholash natijalari to‘g‘risida qayta aloqani o‘rnatish uchun turli xil strategiyalardan foydalanish**

**313.** Yosh o’qituvchi sinfda har bir bolaning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda aniq mezonlarga asoslangan summative baholash tizimini tanlab oldi. Bu vaziyatda yosh ustoz

@Guli_Eshnazarova

o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish mehnat harakatlarining qaysi zarur ko'nikmalarnini namoyon etgan bo'ladi.

**Javob; O‘quvchilarning turli xil ehtiyojlari va qobiliyatlari bilan bog‘liq holda baholash usullarini shaxsga yo‘naltirish**

| | |
|---|---|
| **tashxislash** | o'qituvchi didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlami oydinlashtiradi, uning natijalarini belgilaydi. |
| **bashoratlash** | o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsni samarali tashkil etilishining turli variantlarini tanlab olib baholash va qabul qilingan mezonlarga muvofiq darsni tashkil etishning eng ma’qul variantini tanlab olish va qoilashdir. |
| **loyihalashtirish** | (rejalashtirish) o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. |

**Moslashtirish holida keladi yod oling!**

**315, Moslikni toping**

| | |
|---|---|
| **1 Usul (metod)** | A)Biror-bir jarayonda amalga oshirilgan uslublar yig'indisi |
| **2. Texnologiya** | B) Nazariy, amaliy, boshqaruv vazifalarini yechishning  ma'lum yo‘li. |
| | C) Aniq ketma-ketlikdagi yaxshj jarayon bo'lib, inson va texnik imkoniyatlarni hisobga olgan holda aniq maqsad va kafolarlangan natijaga yo'naltirilgan jarayon |

**Javob; 1-b; 2-a**

@Guli_Eshnazarova

@PedMahoratGuli @Guli_Eshnazarova

**Илова-2**

| Тушунчалар | Мазмуни |
|---|---|
| Таълим | Таълим олувчига махсус тайёрланган мутахассислар ёрдамида билим бериш ва улардаги кўникма ҳамда малакаларни шакллантириш жараёни бўлиб, кишининг шахс сифатида ҳаётга ва меҳнатга онгли тайёрлаш. |
| Тарбия | Инсон шахси маънавий қиёфасини шакллантиришга қаратилган саъи-ҳаракатлар тизими. |
| Таълим мазмуни | Талабанинг ўқитиш жараёнида эгаллаши лозим бўлган билим, кўникма ва малакалар ҳажми ва характери. |
| Ўқитиш шакллари | Анъанавий, ноанъанавий, визуал |
| Дарс (ўқув машғулоти) | Таълимнинг асосий ташкилий шакли, у муайян миқдордаги доимий ўқувчилар таркиби билан қатъий тартибда уюштириладиган ва аниқ мақсадга йўналтирилган дидактик жараён. |
| Ўқитиш воситалари | Ахборотни узатиш ва ўзлаштириш ҳамда ақлий ва жисмоний меҳнат бўйича малака ва кўникмаларни эгаллаш учун ўқитиш жараёнида қўлланиладиган ўқув жиҳозлари ва воситалари |
| Тренинг | (training)- иштирокчиларнинг кўникма ва малакаларини, шунингдек, уларнинг бирор нарсага нисбатан ммуносабатини ўзгартиришга йўналтирилган, интерфаол ўқитиш усуллари ҳамда тажриба орқали ўқитишга асосланган, гуруҳга мўлжалланган таълимий тадбир. |
| Усул (метод) | Назарий, амалий, билув, бошқарув, маиший тавсифдаги вазифаларни ечишнинг маълум йўли. |
| Баҳолаш услублари | Таълимда ёзма иш, тест, 100 балли тизимда баҳолаш ва бошқалар. |
| Технология | Технология (грекча techne - санъат, маҳорат, қобилият; logos - сўз, таълимот) – бирор-бир жараёнда амалга ошириладиган услублар йиғиндиси. |
| Педагогик технология | Аниқ кетма-кетликдаги яхлит жараён бўлиб, инсон ва техник имкониятларни ҳисобга олган ҳолда аниқ мақсад ва кафолатланган натижага йўналтирилган жараён. |
| Малака ошириш | Касбий маълумотга эга кишиларнинг малакавий тайёргарликларига қўйилган талабнинг ортиши ҳамда касбий вазифаларни ечишнинг янги усулларини ўзлаштириш зарурияти сабабли уларнинг билим ва кўникмаларини янгилаш |
| Инновация | Янгиланишни,ўзгаришни амалга жорий этиш жараёни ва фаолияти. (лот. Inovatis in - ичига, novus –янги) сўзидан келиб чиққан бўлиб, янгилик киритиш, янгиланиш) |
| Педагогик маҳорат | Педагогнинг ишга бўлган фидоийлиги, билими ва тажрибаларининг бирикмаси бўлиб, педагог фаолиятининг энг юқори чўққиси, педагогик жараённинг юқори самарадорлигини белгиловчи шахснинг иш сифати ва хусусиятлари синтези. |



arova

| | |
|---|---|
| **1. Ta’lim** | A) bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. |
| **2. Dars** | B) o‘quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon. |
| | C) ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui |

**Javob; 1-b; 2-a**

| | |
|---|---|
| **1. Didaktik o'yin** | A) bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir. |
| **2. Tashxis** | B) shaxsda barqaror xususiyat va sifatlarni belgilangan talab va meyorlar asosida tarkib toptirish jarayoni |
| | C) o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi. |

**Javob; 1-c; 2-a**

| | |
|---|---|
| **1. MIMIKA** | A) bu o'qituvchining gavdasi, qo'l, oyoq haraka tini tartibga soluvchi uslubdir. |
| **2. PANTOMIMIKA** | B) bu o'z fikrlarini, kayfiyatini, holatini, hissiyotini qosh, ko'z va chehra muskullarining harakati bilan bayon qilish san'atidir. Ba'zan o'qituvchi chehrasining va nigohining ifodasi o'quvchilarga katta ta'sir ko'rsatadi. |
| | C) bu ayrim so'z bo'g'inlarining aytilish muddati va to'xta- lishi gapirishdagi to'liq davomiylik, nutq va ifodalarning navbat bilan o'z o'mida ishlatilishini bildiradi |

**Javob; 1-b; 2-a**

@Guli_Eshnazarova

**319.** Yunonistonda notiq qaysi qonuniyatlarga amal qilgan holda 0‘quvchilarni ezgulikka, adolatparvarlikka, vatan oldidagi burchga sadoqatli bo'lishga, yaxshi amallami bajarishga, axloq va odob qoidalariga rioya qilishga chorlar edi.

**Javob; “tinglovchilarga halovat bag'ishlash**

**320**. U aqlan ish ko'rish, rasional fikrlash va hayotiy muammolarni mohirona hal qilishning global qobiliyati” (Veksler), ya'ni insonning atrof muhitga to'liq moslasha olish qobiliyati deb qaraladi.

**Javob; Intellekt**

**321.** Doim o'z ustida ishlab izlanish olib borgan, yutuqlarga, sertifikatlarga yuksak cho'qqiga erishgan pedagogda qaysi jihat yaxshi rivojlangan bo'ladi?

**Javob; Intellekt**

**322.** Pedagogik texnologiya darajalarini to’g’ri ketma-ketlikda belgilang

Javob;

1. Umumpedagogik (makro) daraja.

2. Xususiy-metodik (mezo) daraja.

3. Lokal daraja (mikro).

**323,** Ta’lim turlarining eng qadimiysi bu..

**Javob; Indevidual ta’lim**

**324.** O‘rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchining bilishga bo‘lgan qiziqishi va faollik darajasini rag‘batlantiruvchi o‘quv faoliyati turi nima deb ataladi?

**Javob; Didaktik o’yin**

**325**. Yosh mutaxasis hamkasbining tajribasini o'rganish va ta'lim jarayonini tahlil qilish maqsadida uning darsini kuzatdi. Dars davomida o`quvchilarni qiziqishlarini kayfiyati yaxshi darsga tayyor eklanliklarini ta'kidlab o'tdi. Yosh mutaxasis dars tahlilini qanday turidan foydalandi

**Javob; Psixologik tahlil**

@Guli_Eshnazarova

**326.** 0 ‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rar ekan, asosiy maqsadga erishish uchun ta’lim jarayonining quyidagi talablaridan foydalanishi kerak

Javob; 1.Ta'limiy 2.Tarbiyaviy 3.Rivojlantiruvchi

| | |
|---|---|
| **1) Ta’limiv talablar** | A) har bir darsning ta’limiy vazifalarini aniq belgilash, darsni turli axborot vositalari bilan boyitish, yangi o‘rganilayotgan mavzuni ijtimoiy hayot bilan, turmush tarzi bilan bog'lab mazmunan boyitish va optimallashtirish, so‘nggi pedagogik texnologiya yutuqlaridan oqilona foydalanish, turli ta’lim shakli, metodlari va ko‘rinishlarini qo‘llash, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, darsni yuksak pedagogik mahorat talablari asosida o'tkazishni ta’minlash kabilar kiradi. |
| **2) Tarbiyaviy talablar** | B) asosiy maqsad, ta’lim jarayonida 0 ‘qituvchi tomonidan yangi o'quv material! asosida egallangan bilimlardan tashqari uning tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda tirishqoqlik, tartiblilik, mas’uliyatni his etish, intizomlilik, erkin fikr yuritish, qobiliyatlilik, e’tiborlilik, halollikni shakllantmshdir. |
| **3) Rivoilantiruvchi talablar** | 3) ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘z imkoniyatlarini o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatining ijobiy sifatlariga nisbatan qiziqishini oshirishga., ijodiy tashabbuskorlik va faollikni rivojlantirishga hamda o‘quvchilaming mudroq qobiliyatlarini uyg‘otishga, ong va tafakkurlarini dais jarayonida shakllantirishga qaratadi. |

**Javob; 1-a; 2-b; 3-c**

| | |
|---|---|
| **Mahsuldor ijodkorlik** | har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi; ijod qilishga layoqatli bo'lgan o'qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlar namoyon bo'ladi. |
| **Evristik ijodkorlik** | amaliyotda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni dadil o'zlashtirish va targ'ib qilishni anglatadi, ya’ni uning asosida g'oyalar (farazlar) hosil qilish jarayonini intensifikatsiya qilish va ularning haqiqatga yaqinligini (ehtimolligini, ishonchliligini) izchil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi. |
| **Kreativ ijodkorlik** | o'qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega boigan yangi nazariyalami yaratadi, o'z fikrlari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o'qituvchilargina bunga erishishi mumkin. |

@Guli_Eshnazarova

| | |
|---|---|
| | |

**Ushbu ma'lumotlarni eslab qoling!!!**

| | |
|---|---|
| **1.Debat** | A)yuklatilgan vazifa va muammolarni bir guruh bo'lib hal etishga o'rgatadi |
| **2.Debrifing** | B)muayyan mavzu yoki muammoli vaziyatga turli nuqtai nazarlar bilan yondoshish va o'z fikrini omma oldida himoya qilishga o'rgatadi. |
| | C)muayyan tajriba yoki sinovdan so'ng o'z hissiy kechinmalari va intelektual zaxiralari bilan almashinishdan iborat bo'ladi. |

**Javob; 1-b; 2-c**

**330.** Bir o'quvchining onasi maktabga jismoniy tarbiya o'qituvchisi ustidan shikoyat qilib keldi. U o'qituvchilar xonasida katta janjal ko'tardi. Janjal avjiga chiqmasligi uchun deriktor o'rinbosari bu onaning ruhiy holatini tushunishga harakat qilib unga hamdardlik bildirdi. Pedagogik takt va psixologik bilimlarini ishga solib chiroyli muomala bilan onani tinchlantirdi. Shunda deriktor o'rinbosari pedagogga xos bo'lgan qaysi qobilyatni namoyon qilgan?

**Javob; Kommunikativ qobilyat**

**331.** O'qituvchi o'z darslarida, turli tadbir va ota-onalar majlislarida turli she'riy parchalardan misollar keltirar edi. U she'riyat va musiqani chuqur his qilganligi sababli, uning o'quvchilari ijodkor, maktab hayotida turli konsert dasturlari bilan faol ishtirok etadilar.Bunday holatda o'qituvchining qanday qobiliyati namoyon bo'ladi

**Javob; Eshitish va his qilish qobilyati**

**332.** O'qituvchi bir o'quvchining dars jarayonida berilgan vazifalarini tezlik bilan, pala-partish bajarib, so'ng partaning bir chekkasida berkitib rasm chizayotganini sezib qoldi. Darsdan so'ng bu bolani tasviriy san'at ustozining oldiga olib borib, fan to'garagi mashg'ulotiga yozdirib qo'ydi. Bunday holatda o'qituvchining qanday qobiliyati namoyon bo'ladi

**Javob; Voqealarni oldindan ko'ra olish qobilyati**

333. Yig'ilishda bir o'qituvchi pedagogik mahorati, yuqori ekanligi haqida gapirdi.Yosh mutaxassis esa o'z fanini chuqur bilishi, ammo pedagogik mahorati yetishmasligini aytib, u nimalardan iborat

@Guli_Eshnazarova

bo'lishini so'radi. Quyida "Pedagogik mahorat" tushunchasi ta'rifini qamrab olgan javoblarni belgilang.

**1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak**

**ko'rsatkichi**

**2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi**

**3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi**

**4. O'quv-tarbiyaviy ishlar medodikasini mukammal bilishi**

**Javob; 1,2 , 3, 4**

**334.** Direktor o'rinbosari yosh mutaxassining darsini nazorat qildi.Dars jarayonida yosh mutaxassis o‘quvchilar bilimini nazorat qilib,yangi mavzuni tushuntirdi.Yangi mavzuni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratdi.Bunda u o‘quvchilarning qabul qilish darajasini turli ekanligini hisobga olib,har bir o‘quvchiga mos ravishda vazifalarni taqsimlab berdi.Dars so‘ngida yangi mavzu barcha o‘quvchilar uchun birdek tushunarli ekanligi ma'lum bo‘ldi.Shunda o‘qituvchi ta'lim samaradorligini ta'minlash uchun kerakli bo‘lgan qanday ko‘nikmalarni namoyon etdi.

**Javob; Dars vaqtidan oqilona tashkillashtirish, shuningdek mas'uliyatliva ongli ravishda o‘quvchilar ishini tashkll etish**

**335.** O'qituvchi dars davomida uyga berilgan vazifani tekshirdi, o'tilganlarni takrorlash uchun savol-javob o'tkazdi, yangi mavzuni yoritgach, olingan bilimlarni mustahkamlash uchun o'quvchilar bilan turli mashqlar bajardi. So'ng uyda bajariladigan vazifalarni tushuntirdi va darsni yakunladi.

**Javob; Aralash dars**

**336.** O'qituvchi o'quvchilarga tevarak-atrofni olgan dunyoning qonuniyatlarini, narsa va hodisalarning o‘zaro aloqadorligini tushuntiradi. Nazariy qoidalarni asoslab, izohlab berishni o'rgatadi. Bunda o'qituvchi didaktik qoidalarning qaysi birini amalga oshiradi?

**Javob; Ta’limning ilmiy bo’lishi qoidasi**

**337.** Pedagogik mahoratni egallashning ajralmas qismlari berilgan qatorni toping.

**1) tajribali o'qituvchi o'z ijobiy yutuqlari bilan qanoatlanib qolmasligi**

**2) hamisha kasbiga oid yangiliklarni o'zlashtirib borishi**

**3) jamiyat taraqqiyoti tufayli paydo bo'ladigan zamonaviy pedagogik vazifalar va muammolami hal qilishda faol ishtirok etishi**

**4) o'zining kasbiy ko'nikma va malakalarini uzluksiz oshirib borishga intilishi**

@Guli_Eshnazarova

**Javob; 1,2 ,3 , 4**

| | |
|---|---|
| **1. Masofaviy ta'lim** | A) O'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini distansion o'rganish, ularning bilimlarini sinab ko'rish va o'qituvchilar bilan aloqa qilish uchun Internet va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan ta'lim shakli |
| **2. Noan'anaviy ta'lim** | B) O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga o'quv va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun yangi usullarni ishlab chiqish bo'yicha tajribaga asoslanadi |
| | C) Ta'lim nazariyasi o'quv faoliyatining kattalar sub'yekti tomonidan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib beradigan bo'limi |

**Javob; 1-a, 2-b**

| | |
|---|---|
| **1. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish** | A) O‘zining ta’lim faoliyatini tahlil qilish va baholash, modifikatsiyani talab qiladigan yo‘nalishlarni aniqlash |
| **2. Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash** | B) O'quvchilarni tenglik, adolat va hurmat tamoyillari asosida boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatishga undash |
| | C) O'quvchilarda fuqarolik kompetensiyalari va media savodxonligini shakllantirish |

**Javob; 1-b; 2-c**

| | |
|---|---|
| **1.ta’lim vositalari -** | A) ta’lim samaradorligini ta’minlovchi obyektiv va subyektiv omillar; |
| **2. ta’lim mazmuni -** | B) o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; |
| | C) davlat ta’lim standartlari asosida |

@Guli_Eshnazarova

| | |
|---|---|
| | belgilab berilgan hamda ma’lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o‘zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati; |

Javob; 1-a; 2-c

| | |
|---|---|
| **1. Ta’lim usuli -** | A) ta’lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. |
| **2. Metodika-** | B) qat’iy ketma-ketlikka , ilgari o‘rnatilgan<br>reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo‘lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq<br>o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi |
| | C) bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo‘naltipilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat japayoni mazmunidir. |

Javob; 1-a; 2-b

342. Ushbu metod tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi, muammo holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar maxsus..... formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

**Javob; Matematik-statistik metod**

| | |
|---|---|
| **1. Uslubiy tahlil.** | A) Ushbu tahlil mobaynida ta'lim yo'nalishidagi hukumat qarorlari, talablar, davlat tili, milliy ruh, madaniyatning go'zal durdonalari, shu soha bo'yicha buyuk alloma va olimlarning qilgan ishlari,fikrlari, respublikadagi oxirgi o'zgarishlarning mashg'ulot davomida foydalanilishi asos qilib olinishi mumkin. |
| **2. Metodologik tahlil.** | B) Mavzuning ilmiyligi va izchilligi , oddiydan murakkabga tomon yo'nalishi, ko'rgazmaliligi va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyligi, ularning jonli va ravon tilda ochib berilsihi kuzatiladi. |
| | C)<br>O'rganilayotgan mavzuga dasturda mo'ljallangan soatda, uni qanday usullar yordamida, o‘quvchilarning yoshi va shaxsiy-<br>psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yetkazib bera olishi, o‘quvchilarni o'ylashga, izlanishga majbur etishi va unga sharoit yaratishi;<br>uning ijodkorligi, uslubiy mahorati ko'zga<br>tashlanishi lozim. |

@Guli_Eshnazarova

**Javob; 1-c; 2-a**

| | |
|---|---|
| **1. Ta'lim usuli -** | A) ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. |
| **2. Metodika-** | B) qat'iy ketma-ketlikka , ilgari oʻrnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish boʻlib, biror bir ishni maqsadga muvofiq oʻtkazish metodlari, yoʻllari majmuasi |
| | C) bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yoʻnaltipilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat japayoni mazmunidir. |

**Javob; 1-a; 2-b**

**345.** O'qituvchi dars davomida o'quvchilarga o'tilgan mavzular yuzasidan savollar berdi. So'ng o'quvchilar olgan bilimlarni qo'llash maqsadida kichik guruhlarda amaliy topshiriq bajardilar. Dars yakunida o'rganilgan mavzu yuzasidan o'z xulosalarini taqdimot qildilar.

**Javob; O'rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsi**

@Guli_Eshnazarova